

**UMURTQASIZ HAYVONLAR KO‘P HUYAYRALILARNING KELIB CHIQISHI  
TO‘G‘RISIDAGI ASOSIY NAZARIYALARI**

**Ergasheva Zulfiyabonu Zulinbek qiz**  
**Komilova Barchinoy Qosimjon qizi**  
*Andijon Davlat Pedagogika instituti*  
*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti*  
*Biologiya yo‘nalishi 1- bosqich*  
*102- guruh talabalari*

**Annatsiya:** *Ushbu tezisda barcha ko‘p hujayralilar kelib chiqishi yagona hujayralardan boshlanadi. Gastrey nazariyasiga ko‘ra ko‘p hujayralilarning qadimgi ajdodlari sharsimon kaloniyali hayvonlar bo‘lgan. Bu nazariyani asoschisi- E. Gekkel hisoblanadi. Ko‘p hujayralilarning evalutsiyasi embrional rivojlanishda gastrula stadiyasida ichki ikkinchi embrion varag‘ini blastula devorini blastula bo‘shlig‘iga botib kirishi-invaginatsiya natijasida hosil bo‘lishi bu fikrni tasdiqlaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *I.I.Mechnikov , E. Gekkel, I.Hoji, Gastrey nazaryasi, Fagositella, invaginatsiya ,gastrula , blastula, immigratsiya, blas-topor, sellyurizatsiya.*

Ko‘p hujayralilarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi ko‘p nazariyalar bo‘lib ular Gastrey nazaryasi va Fagositella nazariyalarida turlicha ma‘lumot keltirilgan.

1 Gastrey nazariyasiga- binoan ko‘p hujayralilarning qadimgi ajdodlari sharsimon kaloniyali hayvonlar bo‘lgan. Bu nazariyaning egasi E. Gekkel ( 1874) hisoblanadi. Gekkel juda kop olimlarning embriologiya sohasidagi malumotlarini umumlashtirib va tartibga solib, (o‘zi maxsus tajribalar otkazmasdan) 1874 yilda "gastrey" nazariyasini yaratgan. Nazariyaga ko‘ra ko‘p hujayralilar embrional rivojlanishda gastrula stadiyasida ichki ikkinchi embrion varag‘ini blastula devorini blastula bo‘shlig‘iga botib kirishi-invaginatsiya natijasida hosil bo‘lishi bu fikrni tasdiqlaydi. Gekkel fikricha ko‘p hujayralilarning dastlabki ajdodi kaloniyadan bir bo‘lagini ikkinchi bo‘lagi ichiga botib kirishi natijasida hosil bo‘lgan; gastrula bo‘shlig‘i birlamchi ichak bo‘shlig‘iga aylangan, u og‘iz teshigi bilan tashqariga ochilgan. Gekkel ” gastrey ” deb bu gipotik organizm suvda kibriklari yordamida suzib yurgan; jinsiy ko‘paygan.[1;90bet].

2 Fagotsitella nazaryasi. Bu nazariyani 1886 yilda I.I.Mechnikov asoslab berdi. Tuban tuzilgan ko‘p hujayralilarning gastrula stadiyasi invaginatsiya yo‘li bilan emas , balki ayrim hujayralarning blastula bo‘shlig‘i ( blastasel) ga ko‘chisi- immigratsiya natijasida hosil bo‘lgan. Keyinchalik ichki hujayralar tig‘iz joylashuvi bilan birlamchi ichak bo‘shlig‘i gastrotsel , keyinroq birlamchi og‘iz blas-topor hosil bo‘ladi. Mechnikov ham Gekkel singari ko‘p hujayrali hayvonlarni kaloniyali bir hujayralilardan kelib chiqqanligini tan oladi. Lekin uning ko‘rsatishicha ichki qavat qutblardan biridagi hujayralarning botib kirishi bilan emas,

balki hujayralarning ichki bo'shliqqa ko'chib o'tishi tufayli hosil bo'ladi. Hujayralarni ichki boshliqqa o'tishi ularni oziqni hazm qilishiga ixtisoslashuvi bilan bog'liq. Shuning uchun ham I.I.Mechnikov bunday hujayralarni fagositobalstlar o'z nazariyasini esa " fagotsitella" deb ataydi. [1; 90- 91bet]

A.A. Zaxvatkinning fikricha, E. Gekkelning "Gastreya" va I.I.Mech-niko'vning "Fagotsitella" nazariyalari ko'p hujayralilarning kelib chiqishini aniq aks ettirmaydi. Chunki blastula va gastrula voyaga yetgan organizmlar ajdodlari tuzilishini ifodalamaydi, balki turlarni tabiatda tarqalishiga imkon beruvchi erkin hayot kechiradigan lichinkalari hisoblanadi. Ko'p hujayralilarning qadimgi ajdodlari kaloniya bo'lib yashaydigan g'ovak tanlilar va gidroid poliplar sin-gari o'troq hayot kechirishga o'tgan hayvonlar bo'lgan. Lekin bu fikr haqiqatdan ancha yiroq deyish mumkin. Chunki hazm siste-masi rivojlanmagan va sodda o'troq hayvonlardan murakkab tuzilishga ega bo'lgan hayvonlarni kelib chiqishiga ishonib bo'l-maydi. [2]

Ko'p hujayralilarning kelib chiqishi to'g'risidagi asosiy nazariyalar juda ko'p va hil xil bo'lib bir birga o'xshamagan gipotezlar hisob-lanadi. Ko'p hujayralilarning hayot tarzi va boshqa hususiyatlariga qarab ularni kelib chiqishi to'g'risida turli nazariyalar yaratilgan. Tezida yoritib berilgan nazaryalar o'ziga xos bo'lib ularni tuzulishi , ko'payishiga asoslangan holda nazariyalar ishlab chiqilgan .

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umurtqasizlar zoologiyasi O. Mavlonov, Sh, Xurramov, X , Eshova .
- 2.Hieman Zoology Cleveland P. Hickman.